

Denov tumani mahallalarida olib borilayotgan ishlar bilan tanishildi



Viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov Denov tumanida bo’lib, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, aholiga qulayliklar yaratish, yo’llarni ta’mirlash, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Tumanning “Yangiariq” mahallasida nuroniylar, faollar va mahalla “beshligi” bilan suhbat qilindi. Nuroniylar mahallada olib borilayotgan keng ko’lamli bunyodkorlik ishlaridan mammunligini bildirishdi.

Shu yerning o’zida “Toza hudud” DUKning tuman bo’limi uchun 2 ta maxsus yuk tashish transporti tantanali topshirildi. Shuningdek, o’z faoliyatida boshqalarga o’rnak ko’rsatib, mehnat qilayotgan mahalla xodimlariga sovg’alar berildi.

Shundan so’ng, viloyat rahbari “Chag’aniyon” mahallasi markazidan o’tuvchi 2,5 kilometr yo’lni asfaltlash jarayonlari bilan tanishdi. Mas’ullar bilan ishning borishi, asfalt qoplamasining sifati ko’zdan kechirildi. Hozirgi kunda 2 kilometr yo’lga asfalbt yotqizilgan bo’lib, ishlar davom etmoqda.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)